

ASRLAR YUZIGA BOQADI MAG'RUR

3-4-5-6-betlar

Vatan yagonadir, Vatan bittadir!

Tong

YULDUZI

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqib boshlagan

ISSN - 2010-6092

2009-yil
19-yanvar
N:3
(66700)

DUSHANBADAN

Qaysar qiz
bo'lmayman
2-bet



Aziz o'quvchilar!

O'tgan haftada 14-yanvar - «Vatan himoyachilari kuni»da sizlardan juda ko'p xat-xabarlar, she'riy maktublar oldik. Mustaqillik davrining sharaflari va aziz bayrami, mard, jasur akalarimiz haqida to'liqlanib yozgansiz. Biz sizlarni ham vatanparvar, fidoyi o'g'lonlar bo'lib yetishishingizni tilaymiz.

«KELING, BELLASHAMIZ!»

Yurtimizdagi oliy harbiy ta'lim muassasalari o'rtasida ana shunday tanlov o'tkazilib, unda Chirchiq oliy tank qo'mondon muhandislik bilim yurtining «Tankchi» jamoasi birinchi o'ringa loyiq deb topildi. Balli, azamatlar!

YIGITGA MAYDON YARASHADI

Toshkent shahar, Mirobod tumanidagi o'quvchilar ijodiyot markazida «Balli, yigitlar!» ko'rik-tanlovi bo'lib o'tdi. Unda yetmish nafardan ortiq akalarimiz harbiy-vatanparvarlik, sport va huquqiy savodxonlik bo'yicha bahslashishdi. Yigitga maydon yarashadi. Juda qiziqarli tarzda o'tgan tanlov ularning o'zlarida ham katta taassurot qoldirdi.

«QISHLOG'IM - QALB ARDOG'IM»

O'quvchilar o'rtasida o'tkaziladigan navbatdagi ijodiy tanlov ana shunday ataladi. «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» munosabati bilan tashkil etilgan mazkur tanlov Respublika «Kamolot» YOIH Markaziy Kengashi hamda «Tong yulduzi», «Klass» gazetalari, «Gulxan», «G'uncha» jurnallari bilan hamkorlikda o'tkazilmoqda.

Tanlovga hujjatlar joriy yilning 1-fevralidan 1-noyabrgacha qabul qilinadi. G'oliblarni maxsus diplom va esdalik sovg'alari kutmoqda.

Gazetamizni kuzatib borsangiz, tanlov haqidagi to'liq ma'lumotlar bilan tanishasiz.

QISHKI TA'TILDA

Umumta'lim maktablarida o'tkazilayotgan fan olimpiadalarining shahar, tuman bosqichi bellashuvlarida Farg'ona shahridan 17 nafar iqtidorli o'quvchi tanlab olindi. Bo'sh kelmang, sizga omad yor bo'lsin!

«TO'MARIS AVLODI»

Urganchda chop etilgan yangi gazetaga yaxshi niyat bilan ana shunday nom berildi. Uni siz o'smir yoshlar uchun sevimli, ma'nan boy gazeta bo'lishiga ishonamiz.

Ularga
mag'lublik
yoqmadi...
7-bet

OLTINKO'LDA «BOYCHECHAK»

Andijon viloyati, Oltinko'l tumanidagi «Boychechak» nomli qo'g'irchoq teatri o'z muxlislariga quvonch ulashmoqda.


Tumandagi 22-maktabda tashkil etilgan to'garak - qo'g'irchoq teatriga maktabning ona tili va adabiyot o'qituvchisi Bahridilxon Abilova rahbarlik qiladi.

«Bo'g'irsoq», «Sholg'om», «Kitobim - oftobim», «Uycha» kabi sahnalashtirilgan asarlarni tuman bog'cha bolalari hamda boshlang'ich sinf o'quvchilari mazza qilib tomosha qilishmoqda.

To'garak a'zolari O.Ribojiddinov, N.Jakbarova, D.Halimova, H.Usmonov, G.Ma'rufjonova, A.Turg'unboyev, I.Azimjonovlar maktabda a'lo baholarga o'qish bilan birga, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishmoqda.



Bir maktabga
41 ta «Tong
yulduzi»
8-bet



DUSHANBAGACHA



Navoiyni o'rganamiz

Chin so'z – mo'tabar,
Yaxshi so'z – muxtasar.

QAYSAR QIZ BO'LMAYMAN



Qaysar qizlarni hech kim yoqtirmasligini yaxshi bilasiz-a? Shuning uchun bu odatni tashlash kerak. Kamola ham sinfdoshlari bilan hech kelisholmas, uyda ham doim o'jarlik qilar edi. Lekin u yaqinda bu odatini tashlab, yaxshi qizga aylanib qoldi. Bir kuni sinfdoshi yangi, juda chiroyli ertak kitob olib kelgan edi. Buni ko'rgan Kamola: «Bu kitob meniki bo'lishi kerak, ber menga», deb erkalgini boshladi. Lekin o'rtog'i uning shu manmanligi uchun ham kitobini berishni xohlamadi. Arazlab uyiga borganida, oyisi Kamolaga tushuntira boshladi:

–Jon qizim, sen dugonangdan muloyimlik bilan so'ragin-da o'sha kitobni. Iltimos qil, lekin zinhor o'jarlik qilmagin.


Ertasiga u xuddi shunday qildi. Va qaysarlik qizlarga yarashmasligini tushundi. Endi sira qaysar qiz bo'lmayman, deb o'ziga so'z berdi.

Inkoroyim AMETOVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi
«Jetkinshek» gazetasi muxbiri

TA'TILDA KITOB O'QIDIM

Qisqagina qishki ta'til men uchun mazmunli o'tdi. Bilasizmi, men «Jahon adabiyoti» jurnalini o'qib chiqdim. Unda Ernest Xamingeyev degan yozuvchi haqida yozilgan ekan. Bu yozuvchi bitta asarini 50-60 marta qayta-qayta ko'chirib yozishdan qochmagan. Shuning uchun uning asarlari mukammaldir. Xulosam shu bo'ldiki, biz ham gazetaga yozgan lavha-yu xabarlarimizni erinmay puxta qilib tayyorlashimiz kerak.

Diyor TO'YCHIYEV,
Toshkent shahar, Mirobod tumanidagi
110-maktab o'quvchisi




KATTA VA KICHIK
DAVLAT

Dunyoda hududi jihatidan eng katta davlat Rossiyadir. U 17 million 75 ming 200 kvadrat kilometr maydonni egallagan. Ya'ni, dunyo hududining 11,5 foizi Rossiyaga tegishli.

Hududi jihatidan eng kichik mustaqil davlat esa Vatikan bo'lib, u atigi 44 gektar maydonga ega.

NINACHINING
TEZLIGI

Ninachi eng tez uchuvchi hasharot hisoblanadi. U soatiga 57 kilometr tezlikda uchadi.



ULKAN ROM

Eng ulkan deraza romi Parijdagi sanoat va texnologiya saroyida ekan. 1958-yili o'rnatilgan bu gigant deraza romining umumiy hajmi ellik metr kvadratga teng. Ya'ni, bo'yining uzunligi 20,02 va eni 25 metrdir.

DUNYODAGI ENG
OG'IR MUSHUK

Avstraliyadagi Ximmi laqabli mushuk dunyodagi eng og'ir mushuk deb tan olingan. Uning og'irligi 21 kilogramm, bel aylanasi esa 84 santimetr ekan.



BU QANDAY YAXSHI!

Shu kunlarda daraxtlarga qush uyasini osayotgan tengdoshlaringizni uchratdingizmi? Ular «Kamolot» YOIH Markaziy Kengashidagi «Sardorlar maktabi»ning a'zolari. Tinib-tinchimas sardorlar «Tabiatni asraylik, yoshlar: qushlarga g'amxo'rlik qilamiz» shiori ostida shahrimiz qushlari uchun o'z qo'llari bilan inlar yasashibdi. Hozirda katta tantana bilan boshlangan uyalarni daraxtlarga osish harakati qizg'in davom etmoqda. Bunda sardorlarga Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi va Toshkent shahar obodonlashtirish bosh boshqarmasi ko'maklashmoqda. Ushbu tashkilotlarning yordamlari bilan hatto daraxtlarning eng baland shoxlariga ham inlar o'rnatildi. Qushlar bizning qanotli do'stlarimiz ekanligini yaxshi bilgan sardorlar tengdoshlarida ham atrof-muhitga muhabbat tuyg'usini shakllantirishni istashar ekan. «Sardorlar maktabi»ning bosh sardori Shohruh

Boymurodov yasagan inini bizga ko'rsata turib, shunday dedi:

– Bilasizmi, o'z qo'lingiz bilan narsa yasab, yaxshi ishlarni amalga oshirib yashash, shijoat, tashabbuskorlik yoshlikdek oltin davrimizga mazmun bag'ishlaydi. Shuning uchun biz sardorlar doim yangi loyihalar yaratishga harakat qilamiz. Navbatdagi loyihamizni ko'rib turganingizday tabiatga bag'ishladik. Barcha tengdoshlarimiz biz bilan birgalikda qushlarga g'amxo'rlik qilishsa, maqsadimizga erishgan bo'lamiz.

Shohruh aytganiday, siz ham bu harakatga qo'shiling! Shunda sizning yashash joyingizdagi qushlar ham qishni ko'rkamgina inlarida o'tkazishadi. Bu qanday yaxshi! Qolaversa, do'stlarga hamisha yordam qo'lini cho'zish kerak!

Sayyora JO'RAYEVA

Salimning to'qqista olmasi bor, ularni to'rtta xaltachaga joylashtirishi kerak. Unga yordam bera olasizmi?



KO'CHMA
LABORATORIYA

Aziz bolajonlar, gazetamizning o'tgan sonida farg'onalik ixtirochi tengdoshingiz va uning ixtiroi bilan tanishgandigiz. Buni qarangi, «Ixtiro» sahifasining navbatdagi qahramoni ham Farg'ona tumanidagi Avval qishlog'idan bo'lib, uning ixtiroi mamlakatimiz iqtisodiyoti va sanoati rivojiga hissa qo'shishi bilan muhimdir.



39-maktabning 7-sinfida o'qiyotgan Azizbek G'anijonovning ixtiroi «Neft va gaz konlaridan namunalar olib, tahlil qiluvchi ko'chma avtobus» bo'lib, u mamlakatimizda mavjud konlarning o'zidayoq mahsulotlarni tahlil qiluvchi laboratoriya vazifasini o'taydi. Agar bu ixtironing katta varianti ishlab chiqilsa, ko'plab sarf-harajatlarning oldini olgan bo'lardi. Ya'ni, hozirda konlardan qazib olinayotgan mahsulotlar laboratoriyalarga olib boriladi. Shundan so'ng, ular tahlil qilinadi. Bu ixtiro yo'l harajatlarning sarflanmasligiga olib keladi.

Ko'chma avtobus neft va gaz konlarida kovlanayotgan uchastkalariga chiqib, ulardan namuna oladi. Shu yerning o'zida malakali olimlar zamonaviy asbob-uskunalar yordamida tahlil qilib, olingan natijalar markazdagi bosh laboratoriyaga berib turiladi.

Shuningdek, «Ko'chma laboratoriya avtobusi» o'zida bir qancha qulayliklarni ham jam qilgan. Ya'ni, avtobusda laboratoriya xonasidan tashqari, oshxona, dorixona, yuvinish va dam olish xonalari mavjud bo'lib, bu yerda ishlovchi olimlar va xodimlarga qulayliklar yaratadi. Avtobusda 2 ta haydovchi, oshpaz, tibbiyot xodimi hamda uch nafar olimlar ish olib borishlari mumkin.

Avtobus dizel yoqilg'isi bilan ishlaydi va soatiga 6 km. tezlik bilan harakatlanadi.

«Ko'chma laboratoriya avtobusi» neft va gaz mahsulotlarini tahlil qilishni yengillashtirish bilan birga, olimlarning mehnat qilishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi.

142-maktabning 8-sinf o'quvchisi
Malika UMRZOQOVA,
 Yuragimda saqlayman.
 Ko'zingizdan yosh chiqsa,
 Ishonchingiz oqlayman.
 Qarab turing, onajon,
 Menga in'om eldingiz.
 O'zingiz yemay nomi,

ONAJON

121-maktabning 7-«B» sinf o'quvchisi
Dilshoda ASOMIDDINOVA,



Chehralarda kulgu sochgan o'zingan,
 Bolalarga mehriban ochgan o'zingan.
 Bilim guflin kaliti ham o'zingan,
 Mo'jizalar maydoni sen «Oltin toj».
 Bilimdonlar so'qmog'ingdan boradi,
 Bellashadi o'zlarini sinashib.
 G'olib bola oltin tojning oladi,
 Oloimgay bilimsizlar talashib.

112-maktabning 8-«V» sinf o'quvchisi
Shahnoza YO'LDOSHEVA,



Sening quchoq'ingda ulg'aydim, Vatani,
 Seni yaxshi ko'rdim misoli onam.
 Sen mening yagonam, borlig'im, borim,
 Tillarda dostonim, jon gulistonim!
 Ko'zimni ochganda onamni ko'rdim,
 Onam misolida Vatanni ko'rdim.
 Bog'laring sayr etib jannatni ko'rdim,
 Ko'z ochib ko'rganim jonajon Vatani.

VATAN

Onajonim o'zingiz,
 Meni siz o'stiridingiz.
 Oq yuvib, ham oq tarab
 Alla aytib turdingiz.
 Uxlamay kechalari,
 Bag'ringizga bosdingiz.

121-maktabning 9-«G»
Dilnavoz ROZMATOVA,
 Unda o'ynab yuraman.
 Sevgan joyim – tabiat,
 Guldan-gulga go'narman.
 Mening nomim kapalak,
 Meni deydilar maymog';

KAPALAK

Meni deydilar maymog';
 Asal ko'rsam, ko'nglim chog';
 Bolardan gocharman,
 Chagsa, ingrab yotarman.


AYIQVOY

Men bo'rivoj, yirtqichvoj,
 Lagillalar tulkivoj.
 Qo'y-go'zilarini tuisam,
 Ahvollari bo'lar voj!

BO'RIVUJ

Men tulkiicha, tulkiicha,
 Sho'xliklarimdir ancha.
 Ayyorlikda tanhoman,
 Lagmalarga oshnoman.

TULKICHA



Bir qarasa yonida
 Quyosh chiqibdi.
 Tog'ning boshida esa
 Bulut turtbdi.
Zuhra QALANDAROVA,
 112-maktab o'quvchisi

Yurak bag'rini ezib,
 Yugurur shamol.
 Tog'-u toshlarni kezib,
 Surar ko'p xayol.
 Go'yo quyosh va bulut
 Unga bo'ysunar.
 Yer yuzida hukmron,
 Yo'lq'iz u bo'lar.

XAYOL

248-maktabning 5-«B» sinf
Shahnoza TURDIYEVA,

Bahoroyim, o'zingim!
 Boshlab kelgan Navro'zni.
 Boshlab kelgan Navro'zni,
 Yoki lola, chuchmomma
 Boshlab keldimi sizni?
 Fasllar kelinchagi
 Bahoroyim, go'zalim.
 Barcha fasllar ichra,
 Husni bilan o'zarim.
 Bahoroyim, o'zingim!
 Ayyorlikda tanhoman,
 Lagmalarga oshnoman.

BAHOROYIM

TOSHKENTNING 2200 YILLIGIGA

ASRLAR YUZIGA BOQADI MAG'RUR



Mirzo ULUG'BEK
tumani

«Tong yulduzi» – 2009

Nashrga tayyorlaganlar:

To'liqin HAYIT,
 Feruza ODILOVA,
 Anvarbek NABIYEV,
 Durdona QOSIMOVA,
 Yusuf FAYZULLO,
 Zuhra MUHSIMOVA,
 Ma'mura MADRAHIMOVA,
 Manzura UBAYDULLAYEVA,
 Fazliddin SHOYODGOROV.

Ushbu kitobchani tayyorlashda yaqindan ko'mak berganlari
 uchun Mirzo Ulug'bek tuman hokimligi, tuman Xalq ta'limi
 bo'limi rahbarlariga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

«Tong yulduzi»
 Toshkent – 2009

Feruz To'xtiyeva 275-maktabda ingliz tili fanidan dars beradi. Uning magolalari nafqat mamalakatimizda, balki xorijda ham chop etilgan. «Til, tarjima va adabiyot kengliklarida», «Training Program for Young Experts (Teachers) of Uzbekistan at Universiteti Teknologii Mara», «O'zbek tilsunosligining dolzarb masalalari», «Til va adabiyot ta'limi», «Ma'rifati g'ulshanti», «Amu tongi», «Adolat», «Xalq so'zi», «Sog'lom avlod», «O'zbekiston adabiyoti va san'ati», «Olin galam», «Ma'rifat», «Turkiston» kabi gator gazeta va jurnal, to'plamlarda e'lon qilingan magolalari shular jumlasidan. Uning Ezop masallarini ilk mara ingliz tilidan tarjima qilishi uning haqiqiy muvaffaqiyati bo'ldi.

FERUZANING FAXRI

248-maktabning 9-«A» sinf o'quvchisi
Nargiza O'RALOVA,




To'g'ri qizimchi bahor birga o'tganda, Bolalik ham bizi tashlab ketganda, Katta hayot etagini tutganda, Qadringizni bildim, sindoshlarim. Xotiralar ortdan boqib qolganda, Yurakda mung'li bir his uyg'onganda. Nurli kelajakka biz yo'l oiganda, Qadringizni bildim, sindoshlarim. Maktabni sog'inib o'ygachanda, Yaxshi-yomon gaplarni unitganda, Bir ko'rishga ilhaq bo'lib kulganda, Qadringizni bildim, sindoshlarim. Kipriklarim nogoh ko'z yoshim tildi, Suratingiz silab o'zni ovidim, Keyin o'yab-o'yab shu she'rni bitib, Qadringizni bildim, sindoshlarim.

SINDOSHLARIM

Mir Alisher bobomlardan
Meros bo'lib qolgan tilim.
Buyuk tarix dafjarida,
Shakllanib borgan tilim.
Bobur ZOKIROV,
279-maktabning 9-sinf o'quvchisi

ONA TILIM

Shuning uchun o'quvchilarning ro'znomani orzilib kutishadi.



«KAMOLOT» DARAKCHISI

M. PARDAYEVA,
«Kamolot» yetakchisi

qiziqib goldi. Ustozlarning maslahatlari bilan uning ijodida yangi qitralar ochildi. «Vatan», «Ona tilim», «Kitob», «Mustaqillik» kabi yozgan she'rlari tengdoshlari orasida katta qiziqish uyg'oldi. Boburning orzulari juda ulkan. Kelgusida olib boradigan ishlarida barkamollik tilaymiz.



Mirzo Ulug'bek tumani poytaxtimizdagi o'ziga xos an'analarga ega bo'lgan tumanlardan biri hisoblanadi. Yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda tuman hokimligi, xalq ta'limi bo'limi, o'quvchilar ijodiyot markazi olib borayotgan ishlar tahsinga sazovor. Tumanda o'quvchilarning tariximizga ehtirom ruhida tarbiyalash, milliy qadriyatlarimizni ulug'lash borasida olib borilayotgan ma'rifiy tadbirlar o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otmoqda.

Mirzo Ulug'bek tumani xalq ta'limi bo'limi tasarrufida 32 ta umumta'lim maktabi, 3 ta maxsus internat, 62 ta maktabgacha ta'lim muassasasi, 4 ta bolalar musiqa maktabi, 3 ta bolalar va o'smirlar sport maktabi, 1 ta o'quvchilar ijodiyot markazi, 2 ta sport majmuasi faoliyat yuritadi. Umumta'lim maktablarida 30826 nafar o'quvchilar ta'lim oladilar.



Tumandagi 112-maktabda 25 yildan buyon mehnat qilib kelayotgan Shohida opa Rahimbekova ona tili va adabiyot fanidan dars berishdan tashqari, bolalarga mumtoz hamda milliy qo'shiqlarni kuylashni ham o'rgatadi.

– Qo'shiqchilik san'atiga men bolalikdan qiziqib kelganiman, – deydi u. – O'zbek milliy, mumtoz qo'shiqlarimiz yoshlar diqqatidan chetda qolib ketayotganiga o'xshaydi. Shu bois, men

MILLIY QO'SHIQLARGA HAVAS UYG'OTIB

Qissadan hissa: dushmanniing yu yogona narsa meni yeyishdir, – dedi.

Mening jarohatlanishim yoki yaxshi, yomon o'tini yeyishim seni tashvishga solmaydi. Seni tashvishlanitiradigan yakka-juda yaxshi bitar edi. Shu sababli u: – Ammo Echkil Bo'rning maqsadini tush, ilmos.

Maslahatimga kirib, tepalikkidan pastga yerdagi o'tlar yashilroq va bo'liqroq, kor-hoi bo'lmay turib pastga tush. Bu otishni boshlashibdi. Ular shu kor-hoi bo'lmay turib pastga tush. Biror ohangda debdi Bo'ri, – bunaga bir nechta bola suvdagi bagalarni uchun chaqiribdi.

– Kechirasan, Echkil, – do'stona Echkilni pastga tushirib, tuitib olish may sazorda o'tlayotgan Echkiga ko'zi tushib qolibdi. U Ovgat izlab yurgan Bo'ri baland qoyadagi

BO'RI VA ECHKI

Hovuz yonida o'ynayotgan bir nechta bola suvdagi bagalarni o'ldirishdi. Shunda bir baqa suvdan boshini chiqarib debdi: – O'tinaman, bolalar, to'xtanglar, sizlarga o'yin bo'lgan narsa bizga o'limdir.

BOLALAR VA BAQALAR

Qissadan hissa: bir odamning o'yin-kulgisi boshqalarga iztirob keltirishi mumkin.


TENGDOHLARINGIZ IJODIDAN



Evelina
MIRONCHIKOVA,
279-maktabning
7-«J» sinf o'quvchisi



Orolchadagi burgut



Bizning bog'



Nilufar RAHIMJONOVA,
121-maktabning 6-«A» sinf
o'quvchisi

U maktabda intzomi, qiziqishlari, tasavvutning boyligi bilan o'quvchilar orasida ajralib turadi. Maktabda o'tkaziladigan har bir tadbirida, «Kamolot darakchisi» maktab gazetasiyining har bir soni chiqishida uning xizmati beqiyos.

Yoshligidan tirtshiqoqligi bilan o'tloqlardan ajralib turuvchi Bobur 5-6-sinfda o'qib yurgan chog'laridayoq adabiyotga

MAKTABIMIZ FAXRI

Gulchehra ERGASHEVA

Biz Viktorning kelgusida orzu-niyatlariga yetishishini va san'at sohasida miqyosida I-o'rinni egalladi.

«Yangi avlod – 2008» ko'rik-tanlovida sinab ko'rdi va tuman, shahar hayotini tasavvur ham qilolmaydi.

O'tgan yili Viktor o'z kuchini Viktor endilikda sport raqslarisiz o'z Lotin Amerikasi raqslariga qiziqqan hammani maftun qilmoqda. 5 yoshdan egalladi. Zamonaviy raqslar bilan namoyish etib, sovrinli o'rtnlarni sport raqslari bo'yicha o'z mahoratini Rossiya, Bolibo'y davlatlarida nimik Ozarbayjon, Ozog'iston, Qirg'iziston, Viktor hozirgi kungacha o'quvchilardan biri Viktor Volkov.

– Men Lotin Amerikasi davlatlariga borsimni orzu qilaman, deydi 279-maktabning iste'dodli



G'OLIBI

«YANGI AVLOD – 2008» KO'RIK - TANLOVNING

BORLIGING UCHUN TASHAKKUR

Shoyi havolarda rayhon nafasi oqqan shahar bolaligimda sening nomingni eshitib, seni bir bor ko'rish ishtiyoqida qanchadan-qancha xayollar surganimni bilsang edi...

Seni nega Toshkent deb atasharkan, deb o'ylaganman. Qadim kitoblarni varaqlab chiqsam, seni noming Shoshkent, ya'ni daraxtlar shahri ekan.

Har qarich yering, gullaring, hatto toshlaringda ko'nglimga yaqin Toshkent. Men seni nega bunchalar sevaman, bag'ringda yashab turib ham senga talpinaman. Balki senda ilohiy sehr bordir.


Sen haqingdagi o'ylarim o'z-o'zidan she'riy satrlarga ulanib ketadi:

Ko'nglim rishtalarin bog'ladim senga, Toshkentim! Bunchalar ohanrabosan. O'n ikki darvozan – hikmat eshigi Shaharlar ichinda o'zing tanhosan. Samarqand darvoza – omad darvoza, Mudom yaxshilikka ochadi quchoq. Beshyog'och darvoza bahor nafasini – Yurakka quyadi ohista, quvnoq. Oqibatli hamda juda hokisor – Tarixdan so'z ochar Ko'kcha darvoza. Bag'rida asrlar nidosin ko'mib, Chig'atoy jahonga bo'lgan ovoza. Sag'bon darvozasin hikmati ulug', Asrlar yuziga boqadi mag'rur.

Toshkent osmonini yoritib turar Labzak darvozasi ko'ksidagi nur. Taxtapul darvoza – qadim afsona, Go'yo olislardan sirli sas kelur. Qorasaroy nomin eshitgan lahza Negadir moziydan bir nafas kelur... Nomingdan aylanay, saxovatligi Barchaga mehrli bag'ri keng shahrim. Kamol-u husnda, ilm-u urfonda – Buyuk shaharlarga o'zing teng shahrim. Sendan bir kun ketsam, menda orom yo'q, Sendan boshqa joyda topmasman huzur. Tiz cho'kib shukurlar aytaman, Toshkent. Dunyoda borliging uchun tashakkur.

Halima
JUMANIYOZOVA,
Xalq ta'limi a'lochisi

U qanaga sport turi ekan, deb hayron bo'layapsizmi? Gimnastrada - professional sport turi emas, balki sog'lomlashtiruvchi sportdir. Ammo gimnastikaning asosiy qismlaridan sport va badiiy gimnastika, akrobatika va aerobatika usullari unda ham mavjud. Shuningdek, folklor va hozirgi zamon raqsini ham o'zida mujassamlagan. Unda shug'ullanish yoshi ham chegaralanmagan. Qulayligi, gimnastrada birdek sog'lom va noqiyon shaxslar shug'ullanishi mumkin. Asosiy maqsadi, millatlararo to'lovlik va insonparvarlik, do'stona munosabatlarni mustahkamlashdir. Gimnastadaning yurtimeziga kirib kelishida asosiy tashabbuskor Xotin-qizlar qo'mitasidir. Uning federatsiyasi ham qo'mita hisoblanadi.



Mirzo Ulug'bek tumani maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarida gimnastrada juda ommalashtirgan. Buni har yili «Hokim kubogi» sovrini uchun gimnastrada festivali o'tkazilishidan ham bilish mumkin. O'tgan yilgi festivalda tuman umumta'lim maktablarining jamoalari faol ishtirok etib, g'oliblikni qo'lga kiritgan 64-maktab jamoasi «Hokim kubogi» bilan taqdirlandi. Tadbirida ishtirok etgan jamoalarning barchasi «Kamolot» YOHI, bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasining esdalik sovg'alari hamda xalq ta'limi bo'limi tomonidan «Faxriy yorliq»lar bilan taqdirlandilar.

GIMNASTRADA

8-sinf o'quvchisi Shahlo Xursanaliyeva o'z tengdoshlari orasida ijodkorligi, zukkorligi, iqtidorligi bilan ko'zga tashlanadi. - Men bolaligidan adabiyotga mehr qo'yganim sababli, buyim: «Bu qizim jurnalist bo'ladi», der edilar. Shu bois, men ham ona tili va adabiyot fanidan doim «5» bahoga o'qishga harakat qilaman hamda dunyo xalqlariga o'zbek madaniyati, ilm-fandagi yutuqlarini, yoshlarning bilimiga chanoqligini isbot qilib bermoqchiman. Hozir o'zbek jurnalistikasida siyosatshunoslik sohasi rivojlanmoqda. Men shu sohada ham faoliyat yuritib ko'rmogchiman.



Jurnalist deganda, xayolimga xalqning madaniyati, ertangi kuni haqida qayg'uruvchi inson keladi. Jurnalist xalqning ma'naviy ko'zgusidir, uning har bir sohadagi maqolasi xalqning tilidan, dilidan so'zlashi kerak, deb o'ylayman, - deydi Shahlo.

AGAR JURNALIST BO'LSAM...

Bu kabi tadbirlar albatta maktablarda ham davom etadi. 49-, 112-, 120-, 223-, 248-, 256- va boshqa tuman maktablarda o'quvchilar ma'naviy-ma'rifiy mavzularda ko'plab uchrashuvlar, suhbatlar o'tkazish bilan birga, deyarli gazetalar tayyorlab, she'rlar yod oladilar, kichik sahna ko'rinishlarini namoyish etadilar. Ayniqsa, o'quvchilar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch» kitobini qiziqib o'rganmoqdalar. Bir so'z bilan aytganda, tumanda mahalla va maktab hamkorligi yaxshi yo'lga qo'yilgan. Hamkorlik, hamfikrlilik bo'lgan joyda esa fayz bo'ladi, inilish va izlanish bo'ladi.

asraylik», «O'zbekiston - Vatanim manim» mavzularidagi davra suhbatlari o'quvchi yoshlarning ma'naviy dunyosini boyitishga xizmat qilishi aniq.

«ZIJI KO'RAGONIY» MUALLIFI



Mirzo Ulug'bek buyuk Sohibqiron Amir Temurning nabirasi, Shohruh Mirzoning o'g'li bo'lib, 1394-yilning 22-martida G'arbiy Eronning Sultoniya shahrida tavallud topgan. U 15 yoshlik chog'ida Samarqand taxtiga o'tirib, qariyb 40 yil davomida davlatni adolatli tarzda boshqarib keldi. Mirzo Ulug'bek hukmronlik qilgan davrda Movarounnahr eng tinch va obod o'lkaga aylandi.

Mirzo Ulug'bek o'z hukmronligi davrida xalqning moddiy ahvolini yaxshilashga, saltanatda madaniyat va san'at, ilm-fanning rivojiga katta hissa qo'shdi. U nafaqat saltanat ishlari bilan, balki o'zining ilmiy izlanishlari bilan ham shug'ullandi. Uning 1437-yilda astronomiya faniga bag'ishlab yozilgan «Ziji Ko'ragoniy» ilmiy asari o'sha vaqtda butun g'arb-u sharqda dong taratdi va ushbu asar hozir ham ilmiy ahamiyatini yo'qotgan emas.

Mirzo Ulug'bek tarixda daholim sifatida nom qoldirdi. Shu ma'noda Mirzo Ulug'bek hukmdorlar orasida buyuk olim deb e'tirof etgan tarixchilar haqdir. Tumanimizning shunday ulug' tarixiy shaxsning nomi bilan atalishi kishida g'urur va iftixor hissini uyg'otadi.

Men ham shunday ulug' ajdodim bilan faxrlanaman va ularga munosib voris bo'lishga harakat qilaman.

Malika DONIYEVA, 248-maktabning 9-«D» sinf o'quvchisi

MAHALLADA NIMA GAP?

Xalqimizda «Bir bolaga yetti mahalla ota-ona» degan ajoyib gap bor. Mirzo Ulug'bek tumanida bu gapga qat'iy amal qilishadi. 52 ta mahalla mavjud bo'lgan ushbu tumanda yoshlar o'rtasida ko'plab tadbirlar, uchrashuvlar, bellashuvlar uyushtiriladi. Mazkur tadbirlarga mahalla faollari, nuroniy otaxonlar-u onaxonlar, pedagoglar bosh-qosh bo'ladi.


«Oltintepa», «Fayziobod», «Bo'z-2», «Humoyun», «Ahillik», «Traktorsozlar», «Azamat», «Olimlar», «Bahor» kabi mahallalarida «Mustaqillik va milliy qadriyatlarimizni

Mirzo Ulug'bek tumani o'quvchilar ijodiyot markazi 1949-yilda tashkil etilgan. Mazkur markazda Toshkent shahrini ko'plab tumanlaridan 4578.nafar o'g'ul-qizlar 22 yo'nalish bo'yicha tajribali murabbiylardan saboq oladilar.

Mazkur markazda yoshlarni har tomonlama salohiyatli bo'lib voyaga yetishlari uchun ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar keng miqyosda olib boriladi. Jumladan, «Vatan yagonadir» mavzusidagi davra suhbatlari, «Mehringga tasanno, mehrjon!», «Sen yolg'iz emassan, bolajon», «Kitob - ko'ngil chirog'i», «Balli, yigitlar!», «Qizlar g'azal aytganda, yigitlar jo'r bo'lganda», «Soch yarim husn» kabi tadbirlar yosh avlodni Vatanga muhabbat milliy qadriyatlarimizga mehr tuyg'usi bilan voyaga yetishlarida muhim omillardan biri bo'lib xizmat qilmoqda.

Shirmonoy ASRANOVA





ULARGA MAG'LUBLIK

Poytaxtimizdagi muhtasham sport koshonalaridan biri «Yoshlik» majmuasida futbol bo'yicha xotira turniri bo'lib o'tdi. Unda bo'lajak futbolchilar «Paxtakor - 79» jamoasi safida aviahalokatga uchragan mohir futbolchi, keyinchalik esa futbolchilarning jonkuyar rahbarlaridan biri bo'lgan Mansurjon Tolibjonovni yodga oldilar. Bir hafta davom etgan turnir o'zbek futbolida iqtidorli yosh avlod yetishib kelayotganini namoyon etdi.

YOQMADI...

Ammo «Paxtakor - 79»ni eslab, o'sha unutilmas yulduzlarimiz ruhini shod etayotgan yoshlarimiz an'analarni davom ettirayotganlaridan quvondik. Demak, o'zbek



Bekobodlik futbolchi bolalar qishki ta'tilni poytaxtda o'tkazishdi. Ular bu kunlarni esda qolarli shirin xotiralar bilan eslab yuradigan bo'ldilar. «Paxtakor - 79» xotira turniri ularga omadli daqiqalarni tuhfa etdi. «Metallurg»ning bolalar guruhida to'p surayotgan tengdoshlaringiz musobaqada g'oliblikka erishish niyatida edi. Ularga g'oliblikni xuddi Qorbobo va Qorqiz sovg'a qilgandek bo'ldi...

Omadni qarangki, «Paxtakor»dagi o'rtoqlariga o'tgan yili 6:0 hisobida yutqazgan «Metallurg»chilar bu yilning boshidanoq g'oliblik supasidan joy oldilar.

Biz o'yinni maroq bilan tomosha qildik. Qishning qorli kunlarida issiqqina uylarida multfilm ko'rishdan voz kechib, maydonda to'p tepayotgan bolalarning beg'ubor qiyiriqlari sport olamiga katta umidlar kirib kelayotganini ko'rsatardi.

G'alaba o'z yo'liga.



«Paxtakor»chilarning murabbiyi Lenur Yeremeyevning mag'lubiyatdan ko'ngli cho'kmadi.



futboli osmonida yana Sirojiddin Bozorovdek, Mixail Andek betakror yulduzlar charaqlayotganiga guvoh bo'ldik...

O'yin shu qadar shiddatli va qiziqarli o'tganidan futbolchi bolalarning ota-onalari o'rindiqlarini ham tark etishga majbur bo'ldilar. Sababi, doimo birinchi bo'lib

maydonda: «Paxtakor» chempion, u faqat g'alabaga erishadi, deb qo'shiq kuylagan farzandlari «Metallurg»dagi o'rtoqlariga yutqazayotgandilar-da!

O'yinning 1-taymi 1:0 bilan yakun topdi. 2-taymda esa hisob o'zgarmadi. «Paxtakor»chilarning bir qancha urinishlari besamar ketdi. G'oliblik «Metallurg»chilarga nasib etdi. Maydonda bu safar «Metallurg» chempion, degan qo'shiq yangradi. Ko'zlarida yosh, boshlari egik kichik «Paxtakor»chilar esa jurnalist aka-opalariga ham e'tibor bermasdilar. Negaki, ularga mag'lublik yoqmagandi...

SPORT

KAFA BO'LMANG, BOLALAR!

O'yin jamoamiz uchun oson bo'lmadi. Omad qushi bizning boshimizga qo'nganligidan suyuq. Kuchli raqibni yengdik. Bekobodlik tengdoshlaringiz bugun sizlardek g'oliblik shohsupasiga ko'tariyaptilar. Buning uchun sizlarga tashakkur! Baribir «Paxtakor - 1» bizga kuchli raqib bo'lib qolaveradi.

Qahramon NURMATOV,
Bekobod shahridagi Bolalar va o'smirlar sport maktabining direktori

Sardor SODIQOV - «Paxtakor» bolalar futbol akademiyasining darvozaboni:

- Raqiblarning hujumlaridan ko'pini qaytardim. Ammo shu bittagina gol bizni mag'lublikka sayladi. Ularning jamoasida bir-ikki yosh katta bolalar borligi aniq edi.

Yusuf SHOIMOV - akademiyaning markaziy chiziq himoyachisi:

- O'yin jamoamiz uchun biroz qiyin bo'ldi. Ketmaket raqib darvozasiga gol urish imkoniyati tug'ildi. Lekin g'olib bo'lmadik-da...

Sirojiddin RASULOV - jamoaning hujumchisi:

- Ta'til musobaqalarida 7 ta gol urdim. Ammo «Metallurg»chilarga gol urolmaganimdan xafaman.

Farruh SODIQOV - o'ng qanot yarim

himoyachisi:

- Men turnirning «Eng yaxshi himoyachi»si bo'ldim.

Ulug'bek ABDULLAYEV - mohir himoyachi:

- Turnirning mohir to'purari degan nom oldim. Jamoadoshlarimdan Shohruh Mahmudxojiyev, Ibrohim Nabiye, Umar Adhamzoda, Saveli Abramov va Shohjahon Nishonov kabi to'purarlarimiz ajoyib o'yin ko'rsatishdi.

JASUR HASANOVGA O'XSHAGIM KELADI

- Yagona golni raqib darvozasiga joylaganimdan xursandman. Men «Bunyodkor» yarim himoyachisi Jasur Hasanovdek ajoyib gollar muallifiga aylansam deyman.

Mirolim OMONQULOV,
10 yosh, «Metallurg» jamoasining 18-raqamli o'yinchisi

DARVOZABONMAN

- «Paxtakor»dagi o'rtoqlarimizni 1:0 hisobida yutdik. Yaxshi darvozabon bo'lish musobaqalarda bilinarkan.

Muhammadjon UMAROV,
10 yosh, «Metallurg»ning 1-raqamli darvozaboni

Sahifani Ma'mura MADRAHIMOVA tayyorladi

SPORT-TEST

1. Futbol bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasiga kim bosh murabbiy bo'ldi?

- A) Rauf Inileyev;
- B) Ahmad Ubaydullayev;
- D) Mirjalol Qosimov;
- E) Ziko.

2. Server Jeparov yaqinda qanday mukofotga ega bo'ldi?

- A) O'zbekistonning eng yaxshi himoyachisi;
- B) Osiyoning 2008-yildagi eng yaxshi o'yinchisi;
- D) Osiyo chempionlar ligasi to'purari;
- E) Osiyo chempioni.

QISHLOG'IMDAN SPORTCHILAR CHIQA...

Bu Bahodirjonning orzusi. U jismoniy tarbiya darsini juda yaxshi ko'radi. Ustozi Zangiota tumanidagi 16-maktabning jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi Zore opa Abdullayevaning darsda o'tkazadigan musobaqalarida mazza qilib o'ynaydida! Qolaversa, ustozidan sportning boshqa turlarining sirlarini o'rganayotgan ekan. Bahodir Zore opaga o'xshab jismoniy tarbiya o'qituvchisi bo'lishni orzu qiladi. Chunki qishlog'idan ham kelajakda mashhur sportchilar yetishib chiqishini istaydi. Ajab emaski, uning o'zi ham mohir sportchi bo'lib yetishsa.

Muhayyo TO'LAGANOVA,
Yangiyo'l tumani



41 MAKTABGA TA «TONG YULDUZI»

Maktabimizda turli nashrlarga obuna mavsumi uyushqoqlik bilan yakunlandi. Bunda, ayniqsa, 7-sinf o'quvchilari faol ishtirok etdilar. Natijalarga ko'ra, «Tong yulduzi»ga eng ko'p – 41 nafar o'quvchi obuna bo'libdi.

Yangi yilda sevimli gazetamizda yangi, yaxshi she'rilar, qiziqarli hikoyalar, «Quvnoq tanaffus» kabi quvnoq sahifalar ko'payishini istaymiz. Uning har bir sonini intizlik bilan kutamiz, sevib, sevinib o'qiyamiz.

Nilufar VALIJONOVA,

Andijon viloyati, Baliqchi tumanidagi 44-maktab devoriy gazetasi muharriri

TANAFFUSGA

CHIQA OLMAYMIZ

Bu gapimga hayron bo'layotgandirsiz?! Buning sababi bor, albatta. Chunki hozirgi qorli kunlarda qizlar tanaffusga chiqishsa, sinfdosh bolalar rosa qorbo'ron qilishadi. Shuning uchun bu vaqtni biz ham issiqqina sinfxonamizda o'tkazmoqdamiz. Lekin bu ahvolimizni ko'rgan ustozimiz bir kuni darsda o'g'il bolalarga yaxshilab tushuntirib qo'ydi. Qishning bu ziynatidan barobar bahramand bo'lib, birgalikda o'ynashimizni tayinladilar.

Maftuna HAQBERDIYEVA,
Nafis san'at litseyi o'quvchisi



KO'ZIMGA PASHSHA KIRDI



Ikkita chivin tez uchish bo'yicha poyga o'ynashayotgan ekan. Oldindagisi birdan: «Voy, ko'zim!» deya to'xtab qolibdi.

– Ha, tinchlikmi? – so'rabdi sherigi.

– Ey, ko'zimga chivin kirib ketdi, – debdi haligi chivin ko'zlarini uqalab.

Shoaziz SHOHIDOYEV



Qor yog'ishin kutamiz,
Qor o'yinga shay bo'lib.
Abdullani tutamiz,
Sa'dullaga pay bo'lib.



YAXSHI GAP JON OZIG'I

Sanobar bilan qo'shni bo'lganimiz uchun maktabga birga qatnamiz. Ertalab uning uyidan chiqishini rosa kutaman. Har kuni bir xil holat: kitob-daftarlarini apil-tapil sumkasiga joylagan Sanobar onasining, choyingni ichib ket, deya hay-haylashiga ham qaramay ko'chaga otiladi. Va ikkimiz maktabga yuguramiz. Ustozimizdan bir-ikki daqiqa oldinroq sinfga kirib olgach, ko'nglimiz tinchiydi.

– Sanobar, hoy Sanobar, olib keldingmi? – so'radi orqamizda o'tiradigan Dildora partasidagi darsliklarga ishora qilib.

Sanobarning afti burishib ketdi. Axir o'tgan haftada Dildoradan olgan misol va masalalar

to'plami kitobini olib kelish bugun ham yodidan ko'tarilgandi-da. Ich-ichidan xijolat bo'lsa-da, lekin tiliga boshqa gap keldi:

– Dildora, nuqul shunaqa qilasan-a, bir narsa bersang, so'rab qo'ymaysan. Olasan o'sha kitobingni...

Sanobarning baland ovozda aytgan gaplaridan Dildora qattiq ranjidi. Rangi oqarib, o'qituvchining gaplari qulog'iga kirmay qo'ydi...

Shu ko'ngilsiz voqeadan so'ng, xalqimiz orasidagi: «Tig' yarasidan til yarasi yomon», degan maqolning nechog'li to'g'riligiga yana bir bor amin bo'ldim.

Zilola MUTALOVA,

O'zMU qoshidagi akademik litsey talabasi



TOPISHMOQLAR

Tarkibida geliy bor,
Vodorod, gazlar bisyor.
Yer yuzini yoritir,
Ko'ngillarni shod etar.
Ulug' ne'mat sanalar,
Undan nonlar yaralar.
Bu nima, qizim Guloy?
Bumi, dadajon ...

Habibullo NAZAROV

«5» QO'YMAI BOLADIMI?



Zamonaviylik hamda milliylik ruhi uyg'unlashtirilgan mana bu chiroyli liboslar chizmalarini biror-bir taniqli, mohir dizayner chizgan bo'lsa kerak, deb o'ylayotgandirsiz?! Xulosa qilishga biroz shoshilmang. Ularni Toshkent shahar, Sobir Rahimov tumanidagi 249-maktabning 8- «A» sinf o'quvchisi Shohsanam Turg'unboyeva chizib yuboribdi. 14 yoshli tengdoshingizning tasavvuri shunchalar boyligiga ishingingiz kelmeyaptimi? Ishonavering, bularni o'zi yaratgan. Jajji qizaloqligidanoq dizaynerlikni havas qilgan Shohsanamning liboslar eskizini yaratishga anchagina qo'li kelishib qolgan. Qolaversa, ustozlarining saboqlari tinimsiz izlanishlari bilan uyg'unlashib boryapti. Uning rasm darsidan olgan baholari ham a'lo. Mana bunday rasmlarga «5» qo'ymay bo'ladimi axir?!



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lgan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'liqin HAYITOV

Dizayner va sahifalovchi:
Fazliddin SHOYODGOROV
Naybatchi:
Sayyora JO'RAYEVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
G'ayrat SHOUMAROV,
Dilbar ALIMJONOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA.

Manzilimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

Rassom:
Feruz MATYOQUBOV

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Haftaning dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092

Adadi - 65674
Buyurtma N: J 6747